

## QORAQALPOQ XALQ OG'ZAKI IJODIGA BIR NAZAR

Qudrat Yusupov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali  
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası assistent o'qituvchisi.

Dilbar Abdramanova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali  
Folklor va etnografiya mutaxassisligi 1- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15401421>

**Annotasiya.** *Qoraqalpoq xalqining xalq og'zaki ijodi, dostonlari, maqollari, og'zaki hikoyalari uning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir.*

*Ushbu maqolada qoraqalpoq folklorining turli janrlarida xalqimizning axloqiy qadriyatlari, tarixi va madaniyati bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining boyligini o'rganish, uning xalqni jipslashtirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi.*

**Kalt so'zlar:** *Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi, dostonlari, maqollari, og'zaki ijodi, xalq nasri, ilmiy izlanishlar, milliy madaniyat, tarixiy qadriyatlar.*

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi - qoraqalpoq xalqining boy ma'naviy merosi bo'lib, ularning tarixiy o'tmishini o'zida mujassam etgan asosiy ajdodlar boyligidir. Qoraqalpoq xalqining dostonlari, maqollari, og'zaki hikoyalari nafaqat ma'lum bir davr tarixi va madaniyatini aks ettirish, balki xalqning bugungi hayoti, orzu-umidlari, axloqiy qadriyatlarini aks ettirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Uning tarixi, turmush tarzi, urf-odatlar, orzu-umidlari va badiiy didini aks ettiradi.

Qoraqalpoq folklori og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib kelganligi sababli, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qoraqalpoq folklorida qo'shiqlar o'z ichiga katta bir janrni qamrab oladi. Qo'shiqlar mavzusi bo'yicha har xil bo'lib, qoraqalpoq xalqining hayotida katta o'rin tutgan. Ular odamzot tug'ilganidan boshlab, umrining oxirigacha hayoti va hissiyotlari bilan mustahkam bog'lanib kelgan. Folklordagi qo'shiqlar bilan yozma adabiyotdagi qo'shiqlarning o'zaro aloqasi bo'lgani bilan ularni bir-biridan ajratib turadigan xususiyatlari bor. Folklordagi qo'shiqlarning asosiy xususiyatlari ko'pincha xalq og'zaki ijodida avloddan avlodga o'tib kelgan, xalqning kun kechirishi, urf-odat va dasturlari bilan uzviy bog'langan og'zaki ijro sanaladi.

Og'zaki ijod namunalari xalqning ijtimoiy qatlamlarini, tarixiy voqealarini, turmush tarzini tasvirlash imkoniyatini beradi. N. Dawqaraev, Q. Ayimbetov, O.Kojurov kabi olimlarning ilmiy ishlari qoraqalpoq nasrini tasniflash, uni chuqur tahlil qilishga hissa qo'shdi. Bu akademik tadqiqotlar qoraqalpoq xalq nasrining rang-barangligini ko'rsatish va uni ilmiy jihatdan tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi nafaqat xalq tarixini, balki uning axloqiy qadriyatlarini, dunyoqarashini, ijtimoiy muhitini ham o'zida mujassam etgan. Xalq ijodi, xususan, doston va matallarda xalqning ruhiy holati, axloqiy me'yorlari, hayotga qarashlari umumlashtiriladi. Bu asarlar madaniy meros sifatida nafaqat qoraqalpoq xalqi, balki butun O'rta Osiyo va Turkiston xalqlari uchun ahamiyatli bo'lib, ularning madaniy birligi va o'zaro ta'sirini o'zida aks ettiradi.

Qoraqalpoq folklorining to'plangan va ilmiy tahlil qilingan namunalarini o'rganish xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash, milliy o'zligini mustahkamlash, qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi ularning xalqaro madaniyatlar bilan aloqalarini chuqurlashtirishga, ularni yangi g'oya va istiqbollari bilan boyitishga yordam beradi. Bugungi kunda qoraqalpoq folklori ilmiy izlanishlar orqali yosh avlodga xalq tarixi va madaniyatini o'rgatish, milliy merosni asrab-avaylashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Folklor asarlarining ijro etilish xususiyati ularning adabiy asarlardan, san'atning boshqa yo'nalishlaridan farqini ko'rsatib qolmay, ular bilan bog'lanishini va har bir folklor janrining o'ziga xos ekanligini ko'rsatib turadi. Folklor namunalarining ijrosi ma'lum bir kuyda musiqa asbobi bilan, asbobsiz o'tirishlarda, to'y-marosim yig'inida ham ijro etiladi. Shu jihatdan ular musiqa bilan yaqinlashibgina qolmay, xalqning etnografik an'analari bilan ham bog'liqdir.

Masalan, dostonlar to'y-marosimlarda qo'biz yoki dutor bilan ijro etilsa, qo'shiqlar dutor bilan yoki dutorsiz soz ovozida aytiladi.

Aytish javob shakli ham to'y-marosimda qiz-yigitlar orasida, ikki shoir o'rtasida improvizatsion usulda o'tkaziladigan bo'lgan. Maqol-matallar, topishmoq, tez aytishlar har xil muhitga bog'liq suhbatlashish, uchrashuv vaqtlarida foydalanilgan. Bu xalq ijodiyoti namunalarining ijrosi qanday darajada bo'lmasin musiqiylik va kuyga solib kuylash kerakligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Maqol- matallar xalqning so'z boyligining qanchalik boy ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi istiqbol davriga kelib xalqimizning milliy merosi, shu jumladan donishmandlik sanalmish naql-maqollari insonlar turmush tarizida yanada chuqurroq ifodasini ko'rsatib bermoqda. Xalqning o'tgan davrda yaratgan naql-maqollari uning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni ta'lim-tarbiyaga, odab-axloqli etib tarbiyalashda ahamiyati katta desak mubolag'a bo'lmaydi.

Dostonlarga kelsak, "Qirq qiz" dostoni qoraqalpoq xalqining vatanparvarlik, vatanga muhabbat, qahramonlik ruhini aks ettirgan dostonlaridan biridir. Bu dostonida Vatanga muhabbat, Vatan uchun kurash, xalq manfaatlarini himoya qilish mavzulari aniq ifodalangan.

Qahramonlarning jasorati, fidoyiligi, xalq manfaatlariga sadoqati ko'pchilikning qalbiga chuqur ta'sir qiladi. Dostondan ko'rinib turibdiki, qahramonlar o'z vatanini, xalqini himoya qilish uchun kurashgan. Tuproqni, unda yashovchi xalqni sevish, qiyinchiliklarga qarshi turish, xalq erkinligini ta'minlash dostonning asosiy mavzularini tashkil etadi. Doston o'zining tuzilishi va teran falsafasi bilan adabiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, xalqning ma'naviy, axloqiy qarashlarini taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, qoraqalpoq xalq og'zaki ijodini uning dostonlari, maqollari va xalq nasri orqali o'rganish nafaqat ilmiy, balki madaniy-ma'naviy jihatdan ham muhimdir. Bu asarlarni to'plash va ilmiy tahlil qilish, kelajak avlodlarga yetkazish, qoraqalpoq xalqining madaniy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi xalqning milliy o'zligini shakllantirishga, uning axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini asrab-avaylashga xizmat qiluvchi bebaho boylik bo'lib xizmat qiladi.

#### REFERENCES

1. Q.Jarimbetov, J.Nzamatdinov, I.Allambergenova Qaraqalpaq Folklori. Tashkent-2018
2. K. Palımbetov, P. Allashov Ádebiyat 6-Klass Ushın Sabaqlıq-Xrestomatiya Nókis-2017
3. Q.Ayimbetov Xaliq Danalıǵı. Nókis-1983
4. K. Mámbetnazarov Qaraqalpaq Awızeki Dóretpeleri. Nókis-1990
5. Q\_Maqsetov,\_Á\_Tájimuratov\_Qaraqalpaq\_Folklori\_1979
6. Google.File:///C:/Users/User/Desktop/Qoraqalpoq-Folklorida-Naql-Va-Maqollarning-O'Rni